



Vijdon amri

Sh. Usmonov

*QDU "San'atshunoslik" kafedrası
professori*

Annotatsiya: O'zbek teatri va rejissura san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan Karim Yuldashevning ijod yo'liga bag'ishlangan maqola, Karim Yuldashevning tinimsiz izlanishlari, mashaqqatlari yo'lidagi muvaffaqiyatlari, orttirgan tajribalari, rejissyorlik topilmasini yarata olish mahoratidagi muhim omillar, rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari "Vijdon amri" nomli spektaklning tahlili yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Teatr, spektakl, rejissyor, asar, san'at, aktyor, personaj

Yillar davomida shakllanib kelib, inson qalbidan mustahkam joy egallagan teatr san'ati rassomlik, musiqa, raqs, haykaltaroshlik va boshqa san'at turlarini ham o'zida mujassam qilgan sintetik san'at turi hisoblanadi. Dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom, kompozitor va tomoshabin bular teatrning muhim tarkibiy qismidir. Spektaklda bu bo'g'inlarning barchasi birlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu bo'g'inlarni birlashtirish va ijodiy boshqarishda esa rejissyorning o'рни kattadir. O'zbek professional teatr san'atining shakllanishi va taraqqiy etishida Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Aleksandr Ginzburg, Toshxo'ja Xo'jaev, Bahodir Yuldashev, Karim Yuldashev, Olimjon Salimov singari mahoratli rejissyorlarimizning xizmatlari katta. Ular orasida O'zbekiston san'at arbobi, ustoz san'atkor, iste'dodli rejissyor Karim Yuldashevning ham o'ziga xos o'рни bor.

Rejissura tushunchasi XVIII – XIX asrga kelib ommalashdi. Shu davrlardan boshlab, teatr asarlari ya'ni pesalarni sahnalashtirish uchun rejissyorga ehtiyoj tug'ildi. Avvallari aktyorlar o'zlari o'ynab, tomosha ko'rsatar, kichik-kichik sahnalarda ham ko'rinishlar ijro qilishgan. Bu tomoshalarni tashkil qiluvchi ham, sahnalashtiruvchi ham aktyorlarning o'zlari yoki dramaturglarning ishtirokida tayyorlangan.

Namangan viloyat musiqali teatrida kuni kecha O'. Umarbekovning qalamiga mansub "O'z arizasiga ko'ra" asari asosida sahnalashtirilgan "Vijdon amri" nomli spektaklni tomosha qildim. Bu spektakl rejissyor K. Yuldashev tomonidan 2012 yili qo'yilgan ekan. O'n uch yildan beri sahnadan tushmay kelayotgan asarda, jamiyatda ko'p uchraydigan munosabat ya'ni mansabga qarab muomala qiladigan insonlarning qiyofasi, xudbinligi, oqibatsizliklar, manfaatparastlik, oson qing'ir yo'l orqali maqsadga erishish kabi salbiy illatlar qoralangan.

Spektaklda bosh qahramonlar Quدرات Botirov, Zuhra, Zumrad, Shuhrat, Elyor va boshqa qahramonlarni tashkil etadi. Asosiy qahramon Quدرات Botirov rolini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alijon Tojiboev mahoratli o'ynagan. Asarda barcha voqealar obrazning atrofida unga bog'liq holda yuz beradi.

Spektakl...qayg'uli ohang va sahnaning barcha qismini egallagan aktyorlar qora libosda, oldinda yig'lab ma'yus turgan Zuhra, uning farzandlari Zumrad va Shuhrat onasining yonida turib unga dalda berayotgan ko'rinishdan boshlanadi. Zuhra turmush o'rtog'ining bevaqt vafot etganiga chidolmay, nola qiladi, erining unga aytgan va'dalari, gaplari qulog'iga chalinaveradi. Rejissyorning mahorati bilan o'tayotgan vaqt hech qanday parda yopilmasdan ortga qaytadi. Ya'ni Zuhra yolg'iz o'zi erining xonasida o'tirib uni hayolida eslaydi. Shu payt Quدرات Botirov eshikdan kirib kelib ishga kech qolyapman, menga galstugimni olib chiq deydi. Zuhra qora libosda ichkariga kiradi va boshqa yorqinroq kiyimda galstukni olib chiqib eriga taqadi. Harakatlardan ma'lumki voqea ortga qaytdi, ya'ni Quدرات Botirovning tiriklik paytiga, bu narsa hattoki sahnaning chiroqlari yorug'lashishidan, huddi hayot oldingi go'zal damlardagidek ekanligidan seziladi. Voqealar rivojdi ana shu yerdan boshlanadi. Quدرات Botirov xotiniga ishdan bo'shamoqchi ekanligini, maslahatlashadi. Avvaliga Zuhra uning bu qaroriga tushunmaydi, lekin keyin erining "yoshim o'tib boryapti, tajribam ham hozirgi yoshlardek jo'shqin shijoatli emas, o'rnimni mendan ham yaxshiroq mutaxassisga topshiraman, sog'ligim ham ko'tarmaydi deb qo'rqaman" deb aytgan so'zlaridan keyin erining bu qaroriga qarshilik qilmay balki uni bunday halol pokligidan faxrlanishini aytib uni qo'llab quvvatlaydi. Quدرات Botirov o'z arizasiga ko'ra direktorlikdan oddiy muhandislikka o'tadi. Atrofidagi kalta fahm insonlar, o'g'li uni nojo'ya tushunib, xudbinliklari pastkashliklari tufayli asl yuzini ko'rsatib qo'yishadi. Quدرات Botirovning halol vijdonan qilgan ishi uchun, kutilmagan bu munosabatlar sabab oilasi, farzandalarining hayoti parokanda bo'ladi. Yaqin do'stining o'g'liga unashtirilgan qizining ham fotihasi buziladi. Bularning bariga sabab, ishdan bo'shaganligidir. Qizi Zumrad dadasining qarorini hurmat qiladi, dadasiga nima uchun ishdan ketdingiz deb ham so'ramaydi, chunki u bo'lajak turmush o'rtog'i Elyorning asl basharasi ochilganidan, Zumradga emas, dadasining mansabi uchun uylanayotganini tushunadi va to'g'ri qaror qabul qilganiga ishonadi. Quدرات Botirovning yolg'iz o'g'li Shuhrat doktorlik ishini yoqlash arafasida bo'ladi, barcha ishlarini ustozlari hatto o'zi ham dadasining mansabi orqali hal qilib kelgan. Otasining mansabdan ketishiga bir kun ham o'tmay, uni qo'llab turgan tanish bilishlari, ustozlari ham o'zlarini chetga oladi. Uning barcha rejalari barbod bo'ladi. O'g'li esa bu ishda faqat otasini ayblaydi va buni otasiga ochiq oydin jahl bilan tik aytib hatto qo'l ham ko'tarmoqchi bo'ladi. Noqobul farzandning asl yuzi shu kuni ochiladi. Quدرات Botirovni faqat turmush o'rtog'i Zuhra tushunadi, erining barcha qarorlarini qo'llab quvvatlaydi. Yoshlari 50 dan oshgan bo'lishiga qaramay, bir birlariga bo'lgan mehr muhabbat haligacha yoshlarnikidek ko'zlarida porlab turadi. Har bir ishni, qarorni bir birlari bilan maslahatlashib kelishib hal qilishadi. Quدرات Botirov mansabdan ketmoqchi bo'lishini aytganida Zuhra qarshilik qilmadi, bizga sog'lingiz muhim, qaysi qarorni ma'qul deb bilsangiz ham o'zingiz omon bo'lsangiz bo'ldi deb unga dalda bo'ladi. Quدرات Botirov va Zuhraning munosabatlari na'muna, o'rnak bo'lishga loyiq juftlikdir. Ular bir birlaridan faxrlanishlari Quدرات Botirovning unga aytgan ta'sirli so'zlaridan bilsak bo'ladi

“Zuhra! Sen mening hayotimsan, baxtimsan, quvonchimsan, tashnaligimda suvim, betobligimda darmonimsan...Endi umrim faqat senga! Biz hali ko‘p yashaymiz. Senga butun dunyoni ko‘rsataman, dunyoga, odamlarga esa g‘urur bilan seni ko‘rsataman. Mana mening umr yo‘ldoshim, mening do‘stim deymen”

Qudrat Botirovning hurmati ishxonada ancha baland, chunki u mehnatni oddiy ishchilikdan boshlab, past u balandni ko‘rib tajriba orttirgan mutaxassis edi. Lekin yolg‘iz o‘g‘li esa uning aksi bir oz bo‘lsa ham otasiga o‘xshamagan. U otasiga qarama qarshi harakterda bo‘lib, hamma narsani pul hal qiladi deb hisoblaydi. Afsuski Qudrat Botirov ishongan o‘g‘lining vijdotsizligi, xudbinligi va tarbiyasizligiga, bardosh berolmay, o‘zining tug‘ilgan kunida yurak huruji tutib qoladi, xotini Zuhraga menga suv olib kel iltimos deydi-yu, lekin o‘sha bir qultum suvni ham icholmay jon beradi. Shoshib suv olib kelgan Zuhra esa erining devanda jonsiz yotganini ko‘rib qo‘lidagi suvni ham yerga tashlab yuboradi. Zuhraning ma‘yus, g‘amgin “nega meni tashlab ketdingiz, sizsiz endi qanday yashayman” deb so‘roqlayotgani nigohidan shundoq bilinib turardi. Xushi o‘zida yo‘q, shok ahvolda sekin sahna ortiga yurib chiqib ketadi. Shu yerda parda ham yopiladi. Rejissyor qahramonlarning bundan keyingi taqdirini, yechimini tomoshabinlar hukmiga qoldirgan. Spektakl boshida o‘g‘li janoza paytida afsus qilayotgani berilganidan tushunsa bo‘ladiki, demak salbiy qahramon obrazidagi Shuhrat o‘z xatolarini tushunib yetgan.

Qudrat Botirov rolini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist aktyor Alijon Tojiboev obrazining harakterini ochib bera olgan, aktyorning tashqi ko‘rinishi korxona rahbarlaridek savlatli, baland bo‘yli bo‘lib, aktyorlik mahorati orqali obrazining pok, sofdil halol insoniy fazilatlarini ko‘rsatib bera olgan. Qudrat Botirov oilasini, farzandlarini barcha narsadan ustun qo‘yuvchi mehribon ota va turmush o‘rtoq. Uni hamma hurmat qiladi, u o‘zini boylikka, mansabga o‘ch insonlar davrasidan olib qochadiyu, lekin o‘z o‘g‘li shunday insonlar toifasidan bo‘ladi. O‘g‘li bilan tortishgan paytda unga jahl ustida qo‘l ko‘taradi, lekin keyin bu ishidan afsuslanganini Zuhraga aytishi uning vijdoni pok, hech kimga ozor berishni istamayadigan harakterli ekanini ko‘rsatadi. Vaholanki o‘g‘lining bunday qiliqlari urishga arzigulikdan ham ortiq edi. Ko‘ngilchangligi, o‘g‘lining dilozor so‘zlariyu, atofdagilarining harakati uning umrini zavoliga aylanadi.

Zuhra Botirova ya‘ni Qudrat Botirovning hotini rolini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Karima Rasulova ijro etgan. Aktrisa Zuhra obraziga xos mehribon, aqlli ona va jufti halol harakterini yaqqol ochib bergan. Zuhra obrazi oqila va o‘zbekona ayol timsoli. Turmush o‘rtog‘ini juda hurmat qiladi, har bir qarorini qo‘llab quvvatlaydi. Eri o‘lgandan so‘ng dunyo ko‘zlariga shunchalar tor qorong‘u bo‘ladiki, o‘z o‘g‘lini otasining o‘limiga sababchi ekanini ochiq oydin uning yuziga aytadi. Lekin, u bu sababni boshqalarga ishkor etmaydi. Chunki u- Ona! Ming hafa bo‘lsa ham jahli chiqsa ham farzandidan yuz o‘girmaydi.

“Shuhrat Botirov, Qudrat Botirovning og‘li rolini Abdulbosit Safarov ijro etgan. Shuhrat otasiga konflikt obraz bo‘lib, manfaatparast, xudbin va hamma narsani pul bilan o‘lchaydi. U otasining obro‘si mansabi orqali doktorlikka nomzod bo‘lishni rejalashtirgan, otasining birdan ishdan ketishi uning barcha rejalarini barbod qilib, asl qiyofasini ochadi. U faqat o‘zini o‘ylovchi xudbin xarakterli bo‘lib, buni singlisining aytgan gaplari orqali bilish mumkin: “xotininingiz o‘zingizning aybingiz bilan uydan

ketib qoldi, va otamning mansabi orqali doktorlikni ko‘zlayapsiz” kabilar.”¹ Aktyor rolining xarakterini mahoratli o‘ynagan. Doktorlik rejasi barbod bo‘lgandagi jahlli ichki kechinmasi, bir joyda turolmay uyoq buyoqqa yurishi va harakatlari orqali chorasiz qolganini ochib bergan.

Zumrad Botirova rolini mahoratli aktrisa Ravshanoy Rejabboeva ijro etgan. Zumrad obrazi erka, mehribon lekin sal etiborsizroq va ishonuvchan xarakterli qiz. E’tiborsizligiga sabab otasining tug‘ilgan kunini unutishi va bo‘lajak turmush o‘rtog‘i Elyorning soxta muhabbatiga ishonishidir. Otasining mansabdan ketishi Elyorning asl niyatini qanday ekanligini ko‘rsatadi va Zumradning ham ko‘zini ochadi. Zumrad akasichalik tuban emas, oilasi uning uchun juda qadrli. Oilani muqaddasi dargohligini ota onasining munosabatlaridan o‘rgangan. Shuning uchun ham Elyor bilan baxtli bo‘lishiga ko‘zi yetmay to‘yni vaqtida to‘xtatadi.

Rejissyorlik kasbi ko‘p qirralli va o‘ta murakkab sohadir. Rejissyor nafaqat o‘z kasbini chuqur bilishi, balki adabiyot, tasviriy san’at, musiqa, arxitektura kabi sohalarining bilimdoni bo‘lishi kerak. Yuqori badiiy didga ega bo‘lish, janrni his eta olish, aktyorlarning qanchalik mahoratga ega ekanligi kabi sirlardan xabardor bo‘lishi zarur. Karim Yuldashev spektaklning rassomi hamdir. Uning rassomchilikdan ancha xabardor ekanligi ko‘plab spektakllariga o‘zi rassomlik qilganidan ma’lum. Sahnada dekoratsiyasi o‘ta dabdabali bo‘lmay, oddiy uy jihozlari va korxonadagi ish jarayoni ko‘rsatilgan. Chunki spektaklda voqealar asosan Botirovlar xonadonida bo‘lib o‘tadi. Sahnada ortiqcha detallarning yo‘qligi, tomoshabinlarni aktyorlar ijrosiga ko‘proq urg‘u berishga undaydi. Sahnada dekoratsiyasining talablariga binoan sahnadagi har bir detal albatta ishlatilishi kerak. “Vijdon amri” da ham barcha detallar qo‘llanildi. Rejissyor Karim Yuldashev asarning g‘oyasi va mavzusidan kelib chiqib “Vijdon amri” deb nomlaydi. Asarning nomidan ma’lumki spektakl insonlarni vijdoniylikka, hallolikka chorlash to‘g‘risidadir. Bularni esa Quadrat Botirov timsolida aks ettiradi. Bunday mavzudagi spektaklni ko‘rgan tomoshabin shubhasiz o‘ziga yaxshi niyat, fikr, to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilish, va eng asosiysi mehr muhabbat, vijdoniylik tuyg‘ularini qadrlashni o‘rganadi. Pesa bilan chuqur ishlay bilgan rejissyor, unda albatta o‘z rejissyorlik yechimini topib, uni aktyorlar ijrosi orqali tomoshabinlarga yetkaza olgan. Bu o‘rinda rejissyorning aktyorlar bilan ishlay olish mahorati yuqori darajadiligini ko‘rsa bo‘ladi. Rejissyor rol taqsimotida aktyorlarning ovoz imkoniyatlari va mahoratlarini to‘g‘ri tanlay olgan. Ayniqsa Alijon Tojiboev va Karima Rasulova bir birilariga mos juftlik bo‘lishgan.

“O‘z arizasiga ko‘ra” pesasi asosida sahnalashtirilgan “Vijdon amri bilan” spektakli 2013 yil 22 oktabr kuni O‘zbek Milliy akademik drama teatri sahnasida IV Xalqaro teatr festivali doirasida namoyish etildi va Namangan teatriga katta muvaffaqiyat keltirdi. Festival “Art Week Style-2013”ning ajralmas qismiga aylandi. Ta’kidlash joizki, festivalda poytaxt teatr sahnalarida Vologda kamera drama teatri, AKKO teatr markazi (Isroil), Klaypeda musiqali "Pilis" teatri (Litva), Davlat drama teatri namoyishlari bo‘lib o‘tdi. nomidagi teatr Vladimir Mayakovskiy (Dushanbe), "Boltiqlik uyi" (Sankt-Peterburg), shuningdek, viloyat va poytaxt teatrlari o‘z spektakllarini namoyish etishgan edi.. Lekin asosiy g‘olib “Vijdon amri bilan” spektakli

¹ Носир Аббос “Вилоят театри нимага муҳтож?” Наманган ҳақиқати газетаси. 19-декабр 2012-йил

bo'ldi. Gulnora Karimova spektaklning rejissyori Karim Yuldashevga diplom va festival ramzi – haykalchani topshirdi. “Biz, albatta, spektaklimizni bunday g'alaba kutayotganini kutmagan edik, bundan ham maroqliroq, xalqaro festivalda mashhur poytaxt va xorijiy teatrlar qatorida ishtirok etish har bir viloyat teatri uchun katta sharaftir. Albatta, bizga bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qildik, - deydi Karim Yuldashev. “Bunday festivallar turli mamlakatlar madaniyatlarining o'zaro ta'siri, o'zaro tajriba almashish, o'zingizni ko'rsatish va boshqalarni tomosha qilish imkoniyatidir, u fransuz aktyori, rejissyori va prodyuseri Greg Jermen bilan muloqot qilish juda qiziqarli bo'ldi. “Tomoshabinda o'zingizni qidiring “U va germaniyalik teatr mutaxassisi Nina Mazur, teatr mutaxassisi va jurnalist Elena Liopo (Belarus) festival doirasida mahorat saboqlari o'tkazdilar, – deydi rejissyor.

Dramaturg O'lmas Umarbekov 1982 yilda asarni yozgan. Ushbu spektakl rejissyori va dizayneri Karim Yuldashev unga zamonaviylik elementlarini kiritgan.²

Izlanishdan zavqlanish va o'z ishidan qoniqmaslik ijod ahliga xos hislatdir. Rejissyor Karim Yuldashev ham shunday karakterli inson bo'lib, hech qachon o'z ishidan qoniqmagan. Spektakl tayyor bo'lgunga qadar bo'lgan jarayon uning uchun zavqli bo'lib, premiera paytiga kelganda esa u hech qachon zalda tomosha qilib o'tirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva M. “Rejissura” –T.: “Toshkent”, 2016
2. Bayandiev T. San'at masalalari teatrshunos nigohida. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Bayandiev T, Ikromov H, Axmadjonova M. O'zbek teatrlarida milliy – g'oya talqini. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009
4. Mahmudov J.,H.Mahmudova. “Rejissura asoslari”,O'zbekiston, 2008
5. Yuldashev Karim, Juraeva Mamlakat Alijanovna - PINDUS Journal of Culture, Literature, and ƏLT 04.02.2022 - Features of Dramaturgy
6. Yuldashev Karim, Joraeva Mamlakat Alijanovna - Oriental Art and CultureUzbekistan. Volume 2 Issue 4. 12.2021 - Light life
7. Yuldashev Karim, Juraeva Mamlakat Alijanovna - PINDUS Journal of Culture, Literature, and ƏLT 18.06.2022. Volume 2 No 6 ISSN 2792-1883 - Gulom Zafari Playwright (1889-1938)
8. Theaters after aristotle K. Yuldashev, M. A Jurayeva Oriental Art and CultureUzbekistan.

² www.uzinform.com, 01.11.2013.